



UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING STRATEGIK MOHIYATI

Musurmankulov F.U.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi bosh mutaxassisi

Tayanch so'zlar: uchinchi Renessans, O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, Taraqqiyot strategiyasi, strategik vazifa, umumjamiyat, umumdavlat, umummillat, taraqqiyot g'oyasi.

Ключевые слова: третье Возрождение, новый Ренессанс в Узбекистане, стратегия развития, стратегическая миссия, сообщество, целое государство, весь народ, идея развития.

Key words: third Renaissance, new renaissance in Uzbekistan, development strategy, strategic mission, community, the whole state, the whole nation, the idea of development.

Ma'lumki, bugungi kunda ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad qilib belgilandi. Ta'lim-tarbiya sohasida yangi davr boshlanmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning keng ko'lami ta'lim tizimi bilan bog'liqligi hech kimga sir emas. Bunday islohot maktabgacha hamda maktab ta'lim-tarbiya tizimidan boshlandi. Maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachi, o'qituvchilar tayyorlashning mexanizmini yangi talablar asosida shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada qisqa fursatda keng ko'lami ishlar amalga oshirildi.

Prezident Sh.Mirziyoyev «Yangi ma'naviy makon nima? Mening nazarimda, u – biz orzu qilayotgan Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma'rifatli jamiyatdir», - deb ta'kidlagan edi.

Vaqt va hayotning o'zi yoshlarimizni uzoqni ko'radigan va strategik fikr yuritadigan shaxs bo'lishiga, murakkab voqea-hodisalarning mohiyatini davlatchilik nuqtayi nazaridan ko'ra bilish qobiliyatiga ega bo'lishiga, o'z yurti va xalqi uchun, har bir vatandoshimizning taqdiri uchun ulkan mas'uliyat tuyg'usini chuqur his qilishiga undamoqda. O'zbekistonda mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga alohida e'tibor qaralilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashi, jismonan



va ma'nan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi, ularning qobiliyat va iste'dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatda yoshlar salohiyatini oshirish, ularning ta'lim-tarbiyasi uchun munosib shart-sharoitlarni yaratish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ulug' ma'rifatparvar, atoqli adib va pedagog Abdulla Avloniyning: **«Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir»**, degan so'zlari bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatini yo'qotmagan.

Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi va Davlat dasturida oliy ta'limning qamrov darajasini 50 foizga yetkazish, ta'lim sifatini oshirish, 2026-yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishiga maqsadli tayyorlash va qariyb 100 ming o'rinli talabalar turar joylarini barpo etish kabi vazifalar belgilab olindi. Oliy ta'lim oldida turgan muammo va kamchiliklarni bosqichma-bosqich hal qilish borasidagi qator vazifalar Taraqqiyot strategiyasida qat'iy belgilab olinib, bugunga qadar tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyunda **«Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida»**gi PQ-279-son qarori qabul qilindi. Qarorda 2022-2023-o'quv yilidan boshlab davlat oliy ta'lim muassasalarida ularning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha masofaviy ta'lim shakli joriy etilishi belgilangan. Davlat oliy ta'lim muassasalari magistraturasiga qabul bir yilda ikki marta – avgust va yanvar oylarida tashkil etilishi, davlat OTMLar magistraturasiga qo'shimcha qabul parametrlari asosida o'qishga qabul qilingan abituriyentlarning to'lov-kontrakt summasi bir talabaga to'g'ri keladigan real xarajatlardan kelib chiqib, OTM tomonidan mustaqil belgilanishi hamda yangi o'quv yilidan boshlab davlat OTMLarga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari faqat davlat granti bo'yicha tasdiqlanishi belgilandi. Shuningdek, mamlakatga xorijiy talabalarni jalb qilish maqsadida davlat oliy ta'lim muassasalariga chet el fuqarosi oliy ta'lim muassasasi tomonidan o'tkaziladigan suhbat natijasiga ko'ra o'qishga qabul qilinishi qayd etildi.

Qarorda oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining tavsiyanomasini olgan, oliy ma'lumotga ega bo'lmagan xotin-qizlar uchun yangi o'quv yilidan boshlab bakalavriatning kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumiy belgilangan davlat granti asosidagi qabul parametrlariga qo'shimcha davlat granti ajratilishi xotin-qizlarning oliy ta'lim bilan qamrovini oshirish, ularning davlat va jamiyatdagi faolligini kuchaytirish, gender tenglikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Bunda oliy ta'lim muassasalari, texnikum va kollejlari, sirtqi va kechki ta'limda o'qiyotgan xotin-qizlarning kontrakt pullarini to'lash uchun yetti yilga foizsiz kredit berish, davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlari to'liq davlat budjetidan qoplab berilishi tartibi joriy qilindi.

«El-yurt umidi» jamg‘armasi orqali xorijiy davlatlarning eng nufuzli oliy ta’lim muassasalarida iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida grantlar hajmini 50 foizga oshirish nazarda tutilgan. Talabalarning o‘qishi jamg‘arma tomonidan qoplab berilishi belgilangan. Davlat OTMning 36 ta moliyaviy mustaqillik berilgan to‘lov-kontrakt bo‘yicha 50 mingdan ortiq abituriyent olish bo‘yicha qabul parametri kuzatuv kengashlari qarori bilan tasdiqlandi. Yangi o‘quv yilida qabul parametri o‘tgan yilga nisbatan keskin oshdi.

Taraqqiyot strategiyasi va Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Qarorda belgilangan har bir raqam ortida inson taqdiri, yoshlarning ta’lim va tarbiya olishlari uchun munosib shart-sharoitlarni yaratish maqsad qilingan. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini takomillashtirish, yoshlarga zamonaviy talablar asosida ta’lim berish muhim strategik ahamiyatga ega. Ta’lim sohasidagi innovatsiyalar va davlatning yoshlar masalasida faol siyosati hamda unga tayangan holda amalga oshirilgan islohotlar sezilarli natijalarni bermoqda. Ayniqsa, ta’lim tizimidagi mavjud imkoniyatlarni saqlab qolgan holda, milliy ta’lim-tarbiya tizimiga asos solinib ta’lim sohasida yangilanish jarayonlari davom etmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ta’lim sohasidagi muammolar, ta’lim sifatini oshirishga oid vazifalar muhokama qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 6-noyabr kuni qabul qilingan **«O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PF-6108-son farmoni hamda 2020-yil 6-noyabdagi «Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ 4884-son qarorida ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi.**

Mamlakatimizda yuqori malakali milliy kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish uchun harakat qilinmoqda. O‘zbekistonning ta’lim jarayoniga xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari va o‘qitishning innovatsion metodlari, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilgan holda yangidan-yangi darsliklarni yaratish, xalqaro standartlarga muvofiq ta’lim berish uslubini takomillashtirish, barcha ta’lim oluvchi va beruvchilarni axborot-kommunikatsion texnologiyalardan to‘liq foydalanish ta’minotiga, yangi texnologik o‘quv shakllari va uslublari hamda boshqa yangiliklarni keng tadbiq etishdagi tajribasi, mamlakatda sohadagi rivojlangan demokratik davlatlar tajribasini hisobga oluvchi va ayni vaqtda O‘zbekistonning zamonaviy rivojlanishi murakkab davrining o‘ziga xos jihatlari, uzoq muddatli talablarga javob beruvchi milliy ta’lim modeli yaratilganligidan dalolat beradi.

O‘zbekistonda Uchinchi Renessans uyg‘onish davri, ya’ni jamiyat hayotida har bir soha bo‘yicha, shuningdek, ilm-fanda, ta’lim-tarbiyada uzoq muddatli turg‘unlikdan keyin qayta jonlanish, tez suratlarda rivojlanish, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishidir. Rivojlangan davlatlar tarixiga



nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar, avvalo, ta'lim tizimidan, bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'rish mumkin. Chunki maktabni, ta'lim-tarbiyani tartibga solmay turib shaxsni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi, ilmsiz hech bir sohada natijaga erishib bo'lmaydi.

Prezident Sh.Mirziyoyev «Yoshlar huquqi deganda, biz, birinchi navbatda, ularning tinch va sog'lom yashash hamda ta'lim olishga bo'lgan to'laqonli huquqini tushunamiz. Shu bois, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizning barkamol bo'lib voyaga yetishi, sifatli va mukammal ta'lim olishini ta'minlash biz uchun hamisha ustuvor vazifa hisoblanadi», deb ta'kidladi.

Uchinchi Renessans - strategik vazifa, umumjamiyat, umummillat, umumdavlat taraqqiyot g'oyasi darajasiga ko'tarilmoqda. **Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni deb aytdilar. Jumladan,** «Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz. Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz. Men ishonaman – hurmatli ota-onalar bu tashabbusni, albatta, qo'llab-quvvatlab, yangi Renessansning beshinchi halqasi, beshinchi ustuni bo'ladilar. Va bu ma'naviy-ma'rifiy hayotimizdagi eng mustahkam ustun bo'ladi, desam, o'ylaymanki, sizlar to'la qo'llab-quvvatlaysizlar», -deb ta'kidladilar.

Ma'lumki, tarbiya fani bu ijodkorlik va kashf etish ilmidir. Ota-onalar qo'shni, tanish-bilish, qarindoshlari bilan gaplashganda «Bolagizda qaysi fazilatlarni tarbiyalayapsiz?», «Qancha, qaysi illatlarni yo'qotdingiz?», «Bola tarbiyasida qaysi usullarni qo'llayapmiz, menga ham o'rgating», degan savollarni berib borishlari kerak. Afsuski, bu savollar juda kam uchrayapti-da!», deb yozadi professor M.Quronov. «Bola qalbi – oq qog'oz. Unga nima chizsak, yozsak, shu qolishi haqiqat. Har bir bolaning pok qalbiga go'zal naqshlar – fazilatlarning chizilishi uchun uch narsa kerak bo'ladi: 1) Ustoz, ota-ona, 2) qalam, 3) bola – oq qog'oz. Ustoz, ota-onalar – bor. Farzandlar, bolalar – bor. Lekin qalam bo'lmasa, barmoq bilan naqsh chizib bo'lmaydi. Qalam bu o'rinda tarbiya usuli demak», deydi muallif o'zining so'zlarini davom ettirib.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «Biz bugun o'z oldimizga ulkan marralarni qo'yanmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo'lg'usi Renessansning eng muhim bo'g'inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli, ushbu sohalarda tub islohotlarni izchil amalga oshirmoqdamiz», deb ta'kidlaydi. Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq 2026-yilgacha O'zbekistonning 10 ta oliy ta'lim muassasasi xalqaro tashkilotlar



mingtaligidan joy olishi kerak. Bu xalqaro standartlarda ko'rsatilgan darajalarga erishish vazifasini yuklaydi. Bu borada birinchi navbatda YUNESKO tomonidan 2011-yili qabul qilingan Xalqaro ta'lim standartlari tasnifi me'yorlarini milliy ta'lim an'analarini hisobga olgan holda qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'rifatparvar pedagog Abdulla Avloniy «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir», - deb ta'kidlagan edi. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida qabul qilingan 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli farmoni qabul qilindi.

Farmonda sohaning iqtisodiy mustaqilligi va samaradorligiga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish, oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish, oliy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta'minlash belgilangan.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil 30-sentabr.
2. Mirziyoyev Sh. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqi. Yangi O'zbekiston gazetasi. 2020-y. 26-dekabr.
3. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent, 2021-y. 276-bet.
4. Quronov M. Baxtli bola ma'naviyati. T., "Ma'naviyat" nashriyoti, 2016-y.
5. Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2-jild. <https://kitoblardunyosi.uz/abdulla-avloniy-2>

РЕЗЮМЕ

Maqolada Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda ta'lim tizimidagi islohotlarning strategik mohiyati bugungi kunda ta'lim islohotlari orqali Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad etib belgilanishi masalalariga to'xtalib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье акцентируется внимание на стратегическом характере реформ в системе образования в создании фундамента Третьего Возрождения.

SUMMARY

The article focuses on the strategic nature of reforms in the education system in creating the foundations of the Third Renaissance.